



UO'K: 632.4:633.88

## DORIVOR O'SIMLIKLARDA UCHRAYDIGAN KASALLIKLAR VA ULAR BILAN KURASHISHNING DOLZARBLIGI

**Xakimova Nigora Taxirovna** 

Toshkent davlat agrar universiteti professori

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekistonda dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirishning hozirgi holati, ularda uchraydigan asosiy kasalliklar hamda ularga qarshi kurash choralarining dolzarbligi yoritilgan. Dorivor o'simliklarda tarqalgan un-shudring, zang, dog'lanish va ildiz chirish kasalliklarining biologik xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, dorivor o'simliklarni kasalliklardan muhofaza qilishda ekologik xavfsiz va ilmiy asoslangan himoya choralarini ishlab chiqish zarurligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** dorivor o'simliklar, fitopatologiya, un-shudring, zang kasalligi, ildiz chirish, fitopatogen, biologik kurash, ekologik xavfsizlik.

**Аннотация.** В статье освещены современное состояние возделывания лекарственных растений в Узбекистане, основные болезни, встречающиеся на них, а также актуальность мер борьбы с данными заболеваниями. Проанализированы биологические особенности мучнистой росы, ржавчины, пятнистостей и корневых гнилей лекарственных растений. Обоснована необходимость разработки экологически безопасных и научно обоснованных методов защиты лекарственных растений от болезней.

**Ключевые слова:** лекарственные растения, фитопатология, мучнистая роса, ржавчина, корневая гниль, фитопатоген, биологическая борьба, экологическая безопасность.

**Abstract.** The article describes the current state of cultivation of medicinal plants in Uzbekistan, the main diseases affecting them, and the relevance of disease control measures. Biological characteristics of powdery mildew, rust, leaf spot, and root rot diseases of medicinal plants were analyzed. The necessity of developing environmentally safe and scientifically based protection measures against medicinal plant diseases was substantiated.

**Keywords:** medicinal plants, phytopathology, powdery mildew, rust disease, root rot, phytopathogen, biological control, environmental safety.



### KIRISH

Bugungi kunda jahon miqyosida dorivor o'simliklarga bo'lgan talab keskin ortib bormoqda. Ayniqsa, farmatsevtika, kosmetologiya, fitoterapiya va oziq-ovqat sanoatida tabiiy mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojning ortishi dorivor o'simliklarni strategik ahamiyatga ega tarmoqqa aylantirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi PQ-251-sonli "Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda kasalliklarni davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida dorivor o'simliklarni yetishtirish sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan [1]. Mazkur qaror asosida respublika hududlarida dorivor o'simliklar plantatsiyalarini kengaytirish, qayta ishlashni rivojlantirish va eksport hajmini oshirish vazifalari belgilangan.

Hozirgi kunda respublikada 20 ming gektardan ortiq maydonlarda turli xil dorivor o'simliklar yetishtirilmoqda. Jumladan, moychechak (*Matricaria chamomilla* L.), qalampir yalpiz (*Mentha piperita* L.), shalfey (*Salvia officinalis* L.), dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis* L.), valeriana (*Valeriana officinalis* L.), exinatseya (*Echinacea purpurea* L.) kabi dorivor ekinlar keng tarqalgan [4,9].

Dorivor o'simliklar tibbiyot va farmatsevtika sanoati uchun muhim xomashyo manbai hisoblanadi. "O'zfarmosanoat" ma'lumotlariga ko'ra, dorixonalarda sotilayotgan dori vositalarining 30-40 foizi o'simlik xomashyosi asosida tayyorlangan preparatlardan iborat [8].

Shu bilan birga, dorivor o'simliklarning turli kasalliklar bilan zararlanishi hosildorlik va mahsulot sifatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Adabiyotlarda keltirilishicha, kasalliklar tufayli dorivor o'simliklar hosilining 10-30 % qismi yo'qotiladi [2]. Bu esa mazkur sohada fitopatologik tadqiqotlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Dorivor o'simliklarda asosan un-shudring, zang, dog'lanish, ildiz chirish, fuzarioz va bakterial kasalliklar keng tarqalgan [6].

Moychechakning zang kasalligini *Puccinia pyrethri* Rabh. zamburug'i qo'zg'atadi. U *Bazidiomiset* sinfi va *Uredinales* tartibiga kiradi. Kasallikning dastlabki belgilari iyul oyining ikkinchi yarmida kuzatiladi. Barglarning ustki va ostki qismida qo'ng'ir tusli yostiqlar hosil bo'ladi. Keyinchalik teliopustulalar shakllanib, patogen qishni o'simlik qoldiqlarida teliospora shaklida o'tkazadi [3].


Moychechakning un-shudring kasalligini *Erysiphe cichoracearum* D.C. zamburug'i qo'zg'atadi. Kasallik barg yuzasida oq unimon g'ubor ko'rinishida namoyon bo'ladi. Vegetatsiya oxirida kleystotetsiyalar hosil bo'ladi. Qurg'oqchilik va yuqori harorat sharoitida kasallik tez rivojlanadi [5,7].



***Moychechakning zang (1) va un-shudring (2) kasalligi belgilari***

Mavrak (shalfey)da qora ildiz chirish kasalligi ko'p uchraydi. Kasallangan nihollarning ildiz bo'g'zi qorayib ingichkalashadi, barglar sarg'ayib quriydi. Kuchli zararlangan o'simliklar nobud bo'ladi [7].

Qalampir yalpizda zang va un-shudring kasalliklari keng tarqalgan bo'lib, ular efir moylari miqdorining kamayishiga olib keladi [9].



***Qalampir yalpizda zang(1) va un-shudring (2) kasalliklari belgilari***

Kasalliklarga qarshi kurash choralarini

Dorivor o'simliklarda kasalliklarga qarshi kurashishda ekologik xavfsiz choralarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Chunki dorivor xomashyo tarkibida pestitsid qoldiqlarining saqlanib qolishi inson salomatligi uchun xavf tug'dirishi mumkin [10].

Hozirgi kunda quyidagi chora-tadbirlar samarali hisoblanadi:

- sog'lom urug' va ko'chat materiallaridan foydalanish;
- ekish almashinuviga rioya qilish;
- zararlangan o'simlik qoldiqlarini yo'q qilish;
- agrotexnik tadbirlarni to'g'ri tashkil etish;



## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

- biologik preparatlardan foydalanish;
- kasallikka chidamli navlarni yaratish;
- tez parchalanuvchi va kam zaharli fungitsidlarni qo'llash [10].

Shu bilan birga, fitopatogenlarning molekulyar diagnostikasi, biologik kurash usullari va integral himoya tizimlarini ishlab chiqish bugungi kundagi muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

### XULOSA

Dorivor o'simliklarda uchraydigan kasalliklar hosildorlik va mahsulot sifatiga katta zarar yetkazadi. Ayniqsa, un-shudring, zang va ildiz chirish kasalliklari dorivor xomashyoning farmakologik qimmatini pasaytirib yuboradi. Shu sababli dorivor o'simliklar kasalliklarini o'rganish, ularning qo'zg'atuvchilarini aniqlash va ilmiy asoslangan kurash choralarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda dorivor o'simliklar maydonlarining kengayib borishi mazkur sohada fundamental va amaliy tadqiqotlarni yanada kuchaytirishni talab etmoqda. Bu esa fitopatologiya, mikologiya va biotexnologiya sohalarida tadqiqot olib borayotgan dissertantlar uchun dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-maydagi "Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda kasalliklarni davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-251-son qarori.
2. Васина А.В., Доброзракова Т.Л. Болезни лекарственных растений. – Ленинград, 1960. – 248 с.
3. Гапоненко Н.И. Болезни лекарственных культур. – Москва, 1981. – 214 с.
4. Муравьева Д.А. Лекарственные растения. – Москва: Медицина, 1991.- 560 с.
5. Наумов Н.А. Болезни эфиромасличных культур. – Москва, 1985. – 240 с.
6. Пересыпкин В.Ф. Сельскохозяйственная фитопатология. – Москва: Агропромиздат, 1989. – 480 с.
7. Пидопличко Н.М. Грибы-паразиты культурных растений. – Киев: Наукова думка, 1977. – 295 с.
8. "O'zfarm sanoat" agentligi ma'lumotlari, 2023.
9. Xalmatov X.X. O'zbekiston dorivor o'simliklari. Toshkent: Fan, 1993. – 320 b.
10. FAO. Integrated Pest Management for Medicinal Plants. – Rome, 2021.